



UDK: 821.512.133.091

*Nargiza BARATOVA,*  
*O'qituvchi, Namangan davlat universiteti*  
*E-mail: baratovanargiza199@gmail.com*

*PhD M. Dedaxanova taqrizi asosida*

### QANOTLI SO'ZLARNING SEMANTIK VA JANRIY TRANSFORMATSIYASI HAQIDA (EZOP MASALLARI ASOSIDA)

Аннотация

Maqolada Ezop masallari asosida qanotli so'zlarning Sharq va G'arb adabiy muhitida tarqalishi, ularning o'zbek va rus adabiyoti hamda folkloridagi o'rni qiyosiy tahlil qilingan. Antik davr masallarining janrlararo ko'chishi, xususan, Alisher Navoiy, Sa'diy Sheroziy asarlarida Luqmoni hakim obrazi orqali ifodalinishi hamda rus adabiyotida I. Krilov ijodidagi talqinlari yoritilgan. Tadqiqotda masallarning allegorik tabiati va ularning frazeologizmlar shakllanishidagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** qanotli so'zlar, Ezop masallari, Luqmoni hakim, Alisher Navoiy, I. Krilov, allegoriya, didaktika, o'zbek folklori, rus adabiyoti, frazeologizm, janrlararo ko'chish.

### О СЕМАНТИЧЕСКОЙ И ЖАНРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КРЫЛАТЫХ СЛОВ (НА ОСНОВЕ БАСЕН ЭЗОПА)

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ распространения крылатых слов в литературной среде Востока и Запада на основе басен Эзопа, а также их роли в узбекской и русской литературе и фольклоре. Освещается межжанровая трансформация античных басен, в частности, их воплощение через образ Лукмана Хакима в произведениях Алишера Навои и Саади Ширази, а также интерпретации в творчестве И. Крылова. В исследовании раскрывается аллегорическая природа басен и их роль в формировании фразеологизмов.

**Ключевые слова:** крылатые слова, басни Эзопа, Лукман Хаким, Алишер Навои, И. Крылов, аллегория, дидактика, узбекский фольклор, русская литература, фразеологизм, межжанровая трансформация

### ON THE SEMANTIC AND GENRE TRANSFORMATION OF WINGED EXPRESSIONS (BASED ON AESOP'S FABLES)

Annotation

The article provides a comparative analysis of the spread of winged words in the literary environment of the East and the West, based on Aesop's fables, and their role in Uzbek and Russian literature and folklore. It highlights the intergeneric transformation of ancient fables, particularly their representation through the figure of Luqman al-Hakim in the works of Alisher Navoi and Saadi Shirazi, as well as their interpretations in the writings of I. Krylov. The study reveals the allegorical nature of fables and their significance in the formation of phraseological units.

**Key words:** winged words, Aesop's fables, Luqman al-Hakim, Alisher Navoi, I. Krylov, allegory, didactics, Uzbek folklore, Russian literature, phraseology, intergeneric transformation.

**Kirish.** Qanotli so'zlar (aforizmlar, iboralar) vaqt o'tishi bilan o'zining dastlabki ma'nosidan uzoqlashib, yangi mazmun kasb etadi. Bu jarayon semantik transformatsiya debaladi.

Qanotli so'zlar, avvalo, bir tildan ikkinchisiga ko'chib yuradi, har bir millat, xalq o'z madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqib, ularni shakl va qisman mazmunan o'zgartiradi.

Qadimiy yunon afsonachisi Ezop (av. VI-V a) masallari Mesopotamiya, yahudiy va hind masallariga yaqin ekanligi haqida olimlar yozganlar (П. А. Гринцер ва б). Ezop haqidagi eng qadimiy ma'lumot Herodot «Tarix»ida beriladi: «...masal yozuvchi qul Ezop ham bor edi».

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bizga ma'lum bo'lgan masallar to'plami «eradan avvalgi II-I asrlarda qaysidir bir ellinistik Sharq mamlakatida yaratilgan bo'lsa kerak». To'plam

«Filosof Ksanf va uning quli Ezop haqida hikoya yoki Ezop sarguzashtlari» deb atalib, unda Ezop nomi bilan bog'liq bo'lgan masallardan tashqari masalchi haqida ko'plab afsonalar ham to'plangan. Ezop o'z masallarini eramizdan avvalgi VI asrda yaratgan.


Ezop masallarining o'zbek va rus adabiyotigacha yetib kelishi bir necha bosqich va vositalardan iborat:

1. O'zbek tili – mumtoz didaktik adabiyotdan – arab va fors tilidagi adabiyotdan – yunon adabiyoti.

2. Rus tili (Krilov) – fransuz adabiyoti (Lafonten) – yunon adabiyoti.

Quyidagi rasmda Ezop masallarining Sharq (O'zbek) va G'arb (Rus) adabiyotiga qanday kirib kelgani ko'rsatib berilgan (1-rasm).

Ezop masallarining tarqalish sxemasi



Sharq yo'nalishida Ezop masallari dastlab arab va fors tillariga (masalan, «Kalila va Dimna» orqali) o'tgan, so'ngra Alisher Navoiy va Gulxaniy kabi ijodkorlarning didaktik asarlariga singib ketgan. Oxir-oqibat hozirgi o'zbek adabiy tilida shakllangan.

G'arb yo'nalishida antik yunon manbalari XVI-XVII asrlarda Fransiya Jan de Lafonten tomonidan qayta ishlandi. Keyinchalik rus masalchisi Ivan Krilov Lafonten asarlari asosida rus tilidagi mashhur masallarni yaratdi.

Ezop nomi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha masallarga o'xshash mazmun hind adabiyotining ko'hna namunasi «Kalila va Dimna» (bu asar asrimiz boshida Vizantiyada «Stefanit va Ixnilat» nomi ostida grek tiliga tarjima qilingan), oromiy adabiyoti namunasi «Axikar haqida hikoyat», shumerlar asari «Xattotning o'g'liga nasihati», yahudiylar asari «Sulomonning ramzli hikoyatlari» va Sharq xalqlarida keng tarqalgan ibratli hikoyatlarda ko'p uchraydi.

O'zbek mumtoz adabiyotida Ezop Luqmon payg'ambar nomi bilan uchraydi. Uning nomi bilan bog'liq didaktik hikoyatlar Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma»si, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston»ida, Alisher Navoiyning «Mahbus ul-qulub» asarlarida uchraydi.

Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy» asarida Luqmoni hakim bilan bog'liq bir necha mashhur rivoyat va tamsillar mavjud. Ulardan eng mashhurlari «Luqmon va xarbut (qovun) hikoyati»dir: Bu rivoyatda xojasi Luqmonga bir dona achchiq qovun beradi. Luqmon uni shunday ishtaha va xushnudlik bilan yeydiki, xojasi hayron qolib, o'zi ham bir tilim tatib ko'radi. Qovun nihoyatda achchiq ekanidan tili achishadi. Xojasi: «Shunchalik achchiq narsani qanday qilib bunday zavq bilan yeding?» deb so'raganda, Luqmon: «Sizning qo'lingizdan shuncha shirinliklar yeganki, bu birgina achchiq narsa uchun yuzimni burishtirishga uyaldim», deb javob beradi. Rumi bu orqali ishq va sadoqat achchiqni ham shirin qilishini tushuntiradi. «Luqmon va qullar» hikoyasida esa Xojaning bog'idagi mevalarni boshqa qullar yeb qo'yib, aybni Luqmonga ag'darishadi. Luqmon o'zining pokligini isbotlash uchun hammaga qaynoq suv ichishni taklif qiladi. Qaynoq suv ichilgach, hamma qullar ko'nglida borini (yegan mevalarini) qayt qiladi, Luqmonning esa ichidan faqat toza suv chiqadi. Rumi bu bilan Qiyomatdagi hisob-kitob va insonning botini oshkor bo'lishiga ishora qiladi.

Ezop masallaridagi dengizni ichib yubormoqchi bo'lib maqtangan Ksanf «Tarixi hukamo va anbiyo»ning «Luqmoni hakim» bobida xoja sifatida uchraydi. Dunyodagi eng achchiq va shirin narsa (til) haqidagi masal ham mazkur asarda o'zgarishsiz uchraydi.

Bug'doy o'rniga arpa ekan qul haqidagi masal ham «Tarixi hukamo va anbiyo» asaridan tashqari, Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy», Xojaning «Miftoh ul-adl» asarlarida kuzatiladi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagi asarlarda Luqmoni hakim (Ezop) haqidagi rivoyatlar muayyan muammoni xiulasalash va misol keltirish uchun keltiriladi, talqinlar esa asar mavzusiga ko'ra turlicha ko'rinish oladi.

I. S. Liseyev «Ezop masallari mazmuni Sharqda» maqolasida «Bir-biri bilan chiqishmagan o'g'illar va bir dasta xivchin» deb nomlangan hikoyatni O'rta dengiz atrofida yashovchi xalqlar – greklar, skiflarda (Ezop, Plutarx), yahudiylar, rim va Sharq xalqlari xitoy, tibet, hind, tojik, o'zbeklarda turli variantlari borligi haqida fikr yuritadi.

Ezopda I. Liseyev keltirgan masal «Dehqon va uning o'g'illari» deb ataladi: «Bir dehqonning ikki o'g'li bo'lib, ular bir-biri bilan chiqishmas va ko'p urishar ekanlar. Ota ularga qancha gapirmasin, foydasi bo'lmabdi. Shunda ota ularga bir dasta xivchin olib kelishni va keltirilgan xivchinlarni sindirishni buyuribdi. Ular qancha urinmasinlar, xivchinlarni sindirilmabdilar. Shunda ota dasta xivchini bitta-bitta ajratib o'g'illariga beribdi va sindirishni buyuribdi, ular osonlik bilan barcha xivchini sindiribdilar. Shunda dehqon ularga: ko'rdinglarmi, bolalarim, ittifoqlikda gap ko'p. Agar ittifoq bo'lib yashasangiz, hech qanday dushman sizlarni yenga olmaydi», – deydi.

Xuddi ana shu mazmundagi masal va hikoyatlar bir oz o'zgarish bilan bo'lsa-da, yuqorida tilga olingan xalqlar ijodida mavjud. Jumladan o'zbek xalq og'zaki ijodidagi «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar», «Bo'linganni bo'ri yer», «Kuch — birlikda», «Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas» kabi maqollar shu mazmuni o'zida aks ettiradi.

Eng qiziq jihatlardan biri shu mazmundagi rivoyatlar boshqa tarixy (afsonaviy) shaxslar bilan ham bog'lab keltiriladi: Rashiduddin Fazlullohning «Jome' ut-tavorix» («Tarixlar to'plami») asarida Tug'luq Temurxon, «Mo'g'ullarning maxfiy tarixi» asarida mo'g'ullar ajdodi Alunquva (Alan-Goa), Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarayi turk» asarida O'g'uzxon bilan bog'lab keltiriladi. Xivchin detali esa o'zga almashadi. Bu «o'qlar dastasini sindirish» motivi jahon adabiyotining eng qadimiy didaktik usullaridan biridir.

«Tulki va Qarg'a» sujeti o'zbek ertak va latifalarida, shuningdek, Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida ham uchraydi. Tulkinging qarg'ani aldab, og'zidagi narsani tushirib olishi Ezopning mashhur masallaridan biridir. Rus adabiyotida «Qarg'a va tulki» (Ворона и лисица) masala keng ma'lum. Ezopda qarg'a shunchaki go'sht parchasini tushirib yuboradi. Krilovda esa qarg'a «pishloq» topib oladi (o'sha davr Rossiyasi uchun bu tansiqroq narsa edi) va tulki uni juda ustalik bilan, ruscha «xushomad» san'ati bilan aldaydi. «Ninachi va chumoli» (Стрекоза и Муравей) bilan bog'liq masalda esa Ezopda «Chigirtka» bo'lgan, lekin rus iqlimida chigirtkadan ko'ra ninachi obrazliroq ko'ringani uchun Krilov uni o'zgartirgan. Bu yerda rus qishining qahratoni va unga tayyorgarlik ko'rmaslik oqibati bo'rttirib ko'rsatilgan. «Bo'ri bilan qo'zichoq» (Волк и Ягненок) masali Krilovda o'sha mashhur jumlagi aylanib ketgan: «Kuchli odamda har doim kuchsiz aybdor» (У сильного всегда бессильный виноват). Krilov tufayli Ezopning qadimgi hikmatlari Rossiyada shunchaki adabiyot emas, balki xalq donoligiga aylandi. Ko'plab personajlar (masalan, «Maymun va ko'zoynak») o'sha davr jamiyatidagi muammolarning jonli timsoliga aylangan.

Sa'diyda hayvonlar tili orqali berilgan masalsimon hikoyatlar Ezopiy ruhga ega. Sa'diyda shunday bir hikoyat bor: bir kishi bo'ri bolasini boqib katta qiladi, ammo ulg'aygan bo'ri baribir o'z tabiatiga tortib, egasining qo'ylarini bo'g'izlaydi. Bu Ezopning «Bo'rini boqqan cho'pon» masaliga aynan mos keladi. Sa'diy Sheroziy ham Ezop kabi «ibrat» (didaktika) berishni maqsad qiladi. Ezop masallari oxirida «Bu masaldan xulosa shuki...» deb yozilsa, Sa'diy har bir hikoyatdan so'ng uning mag'zini chaquvchi bayt (she'riy parcha) keltirib o'tadi. Mazkur an'ana Sharq adabiyotida keng davom ettirib keltiriladi.

«Cho'pon bola va bo'ri» masala mazmunida «Yolg'on xavf-xatar bilan odamlarni ovora qilish» ifodalani, Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonining sakkizinchi maqolat (Yolg'onchilikning zarari va rostgo'ylikning fazilati haqida)ida «Sher va Durroj hikoyati» aynan shu masalga mos keladi. Garchi Ezopda bu voqea bevosita «cho'pon» bilan bog'liq bo'lsa-da, Navoiy uni qush (durroj) va sher misolida sharqlashtirgan. Masala cho'pon bola zerikkanidan «bo'ri keldi» deb yolg'on baqiradi, haqiqatda bo'ri kelganda esa unga hech kim ishonmaydi. Shuningdek, Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida xuddi shu mazmundagi hikoya ham uchraydi.

Ezop masallaridan «Sohibkor dehqon va uning o'g'illari», «Tulki va go'sht o'g'irlagan qarq'a», «O'tin ko'targan chol va ajal», «Odamlarni aldagan cho'pon bola», «O'g'ri bola va uning onasi», «Tulki va uzum» kabilari o'zbek I-jadval

Masallarning turli adabiy muhit va janrlarga ko'chishi

| Janr               | O'zbek adabiyoti va folklori   | Rus adabiyoti va folklori   |
|--------------------|--|---|
| Doston / Poema     | Alisher Navoiy, «Hayrat ul-abror» (Yolg'onchi durroj hikoyati — masal asosidagi tamsil). | I. Krilov, «Demyan sho'rvasi» (Dramatik sahna ko'rinishidagi masal-poema).                            |
| Ertak (Folklor)    | «Tulki bilan Turna», «Bo'ri bilan Laylak» (Ezop syujetlarining xalqona talqini).         | «Лиса и журавль» (Tulki va turna), «Волк и семеро козлят» (Ezopning «Bo'ri va bolalar» masali asosi). |
| Didaktik asar      | Gulxaniy, «Zarbulmasal» (Masallar asosiga qurilgan yaxlit nasriy asar).                  | L. Tolstoy, «Bolalar uchun alifbo» (Ezop masallarini sodda nasriy hikoya shakliga o'tkazgan).         |
| Satira va Komediya | Hamza, «Toshbaqa va Chayon» (Ijtimoiy-siyosiy masal-she'rlar).                           | M. Saltikov-Shehdin, «Ertaklar» (Masal allegoriyasini siyosiy satira/ertak janriga ko'chirgan).       |
| Frazeologiya       | «Bo'linganni bo'ri yer», «O'zi yemaydi, itga bermaydi».                                  | «А Васья слушает да ест», «Слона-то я и не приметил».   |

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilganlar quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Ezop masallari nafaqat G'arb, balki Sharq madaniy hududida ham qadimdan ma'lum bo'lgan. Bu jarayon bevosita (yunon-baqtriya madaniy aloqalari) va bilvosita (arab-fors tillaridagi tarjimalar) yo'llar bilan amalga oshgan.

Ezop siymosi va uning «donishmand qul» obrazi Sharq adabiyotidagi Luqmoni hakim obrazi bilan chatishtirilgan yoki aynanlashtirilgan. Alisher Navoiy, Sa'diy Sheroziy kabi mutafakkirlar asarlaridagi Luqmon obrazi Ezopiy didaktikaning islomiy ma'naviyat bilan uyg'unlashgan ko'rinishidir.

folklorida ham mavjud. Afsuski, o'zbek folklor asarlarida masallar maxsus janr sifatida alohida chop va tadqiq etilmagan, ularga hikoyat, ertak sifatida qaraladi.

O'zbek va rus tillarida Ezop va uning masallari bilan bog'liq frazeologizmlar ham yuzaga kelgan. Jumladan, Ezop tili (Эзопов язык) har ikki tilda uchraydigan qanotli so'z bo'lib, o'z fikrini ochiq ayta olmaydigan vaziyatda majoziy, qochiriqli va ramziy tarzda ifodalashni anglatadi. Ezop qul bo'lgani uchun xo'jayinlariga haqiqatni hayvonlar timsolida aytishga majbur bo'lgan.

«Somon ustidagi it» (Собака на сене) Ezopning shu mazmundagi masalidan kelib chiqqan ibora bo'lib, o'zbek tilida «O'zi ham yemaydi, itga bermaydi» (baxil) ma'nosida qo'llanmoqda. Bunda frazeologik birlik ichidagi detallarning (it, bermoq) saqlanishi ibora bevosita masalga bog'liq holda qanotli so'z sifatida transformatsiyaga uchraganini bildiradi.

«Tulki va uzum» masalida esa inson biror narsaga kuchi yetmaganda yoki uni qo'lga kiritma olmaganda, o'sha narsani «yomon» yoki «keraksiz» deb kamsitishiga nisbatan aytiladi. Masalda tulki balanddagi uzumga sakrab yetolmagach: «Uzum hali xom (achchiq) ekan», deb ketadi. O'zbek tilida metal uchraydi: «Tulki (boshqa matalda mushuk) go'shtga bo'yi yetmay puf sassiq degan ekam», shaklida uchraydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib quyidagicha tasvirlashimiz mumkin (1-jadval):

Ezop masallarining syujetlari (ayniqsa, «Yolg'onchi cho'pon», «Uzum va tulki», «Birlashgan xivchinlar») o'zbek xalq og'zaki ijodidagi hayvonlar haqidagi ertaklarga va Navoiyning «Hayrat ul-abror», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi asarlariga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ezop masallari asosida paydo bo'lgan frazeologizmlar va maqollar (masalan, «Ezop tili», «Sher ulushi») bugungi kunda ham o'zbek tili leksikasida faol qo'llanilib, inson axloqini shakllantirishda muhim vosita bo'lib qolmoqda. Bu esa qanotli so'zlarning transformatsiyasi, turli adabiy va folklor janrlariga uchrashini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 416 б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 7: Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 14: Махбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 2011.
4. Саъдий Шерозий. Гулистон (Ф.Ғулум таржимаси). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2004.
5. Жалолитдин Румий. Маснавийи маънавий. – Тошкент: Шарк, 2005.
6. Пошшоҳўжа (Хўжа). Мифтоҳ ул-адл. – Тошкент: Фан, 1964.
7. Геродот. История в девяти книгах. / Пер. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972.
8. Рашидуддин Фазлуллох. Жомеъ ут-таворих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
9. Эзоп. Басни. – Москва: Наука, 1968.
10. Выготский, Л.С. Психология искусства / Л. С. Выготский. – Москва : Искусство, 1986. – 573 с.
11. Гаспаров, М.Л. Античная басня / М. Л. Гаспаров. – Москва : Наука, 1971. – 280 с.
12. Коровин, В.И. Поэты и баснописцы / В. И. Коровин. – Москва : Просвещение, 1973. – 255 с.
13. Степанов, Н.Л. Иван Андреевич Крылов : Жизнь и творчество / Н.Л.Степанов. – Москва : Художественная литература, 1958. – 468 с.
14. Крылов, И.А. Полное собрание сочинений : в 3 т. / И.А.Крылов ; ред. текста и примеч. Н.Л.Степанова. – Москва : Гослитиздат, 1944–1946.
15. Федов, С.В. Эзопов язык в русской литературе / С.В.Федов // Филологические науки. – 2012. – № 4. – С. 12–18.
16. Тюпа, В.И. Аналитика художественного : Введение в литературоведческий анализ / В. И. Тюпа. – Москва : Лабиринт, РГГУ, 2001. – 192 с.
17. Эзоп. Заповеди. Басни. Жизнеописание / Эзоп ; пер. М.Л.Гаспарова. – Москва : Эксмо, 2003. – 448 с.